

Autsorsing matritsasi

Mirzayev I, Xushiyeu Sh, Yo'ldoshev B (magistrantlar)

Ilmiy rahbar: prof. Samatov G'.A.

Tayanch atamalar: Autsorsing, autsorsing matritsasi, raqobatbardoshlik pozitsiyasi, strategiik ahamiyat, autsorsing alyans, diversifikatsiya.

"Autsorsing" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, tashqi manbalardan foydalanish, tashqi manbalardan yoki resurslardan foydalangan holda tashkilot tomonidan shartnomaga asosan istalgan hududda faoliyat ko'rsatuvchi boshqa kompaniya ishlab chiqarish faoliyatining muayyan turlari yoki funksiyalarini o'tkazish. Xizmatlardan va qo'llab quvvatlashlardan farqli epizodik yoki tasodifiy va boshidan ohirigacha cheklangan, autsorsing odatda uzoq muddatli shartnoma asosida (kamida 1 yil) individual tizimlar va infratuzilmani uzliksiz ishlashi uchun professional yordamni o'z ichiga oladi.[1]

Bir korxonaning rahbari autsorsing to'g'risida fikr yuritganda, uning uchun birinchi va eng muhim savol bu qanday faoliyat turi tashqi manbalardan bo'lishi kerak va o'z tashkilotida qanday ishlarni qilish kerak? Misol uchun Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona direktori bo'lsangiz, qanday qaror qabul qilgan bo'lar edingiz? Bu qiyin savol va har bir korxona rahbari uni o'z sohasidan kelib chiqqan holda javob beradi. Tasavvur qilaylik biz elektr lampochka ishlab chiqaruvchi korxona tashkil qilmoqchimiz, bu mahsulot ishlab chiqarish uchun bizga ishchi hodimlar, xom ashyo, bino, texnika, masxus asbob uskunalar, laboratoriya jihozlari talab etiladi. Albatta istalgan korxonada elektr energiyasidan foydalaniladi va hozirgi kunda elektr energiya tarmog'iga ulanish muammo emas! Demak qanday biznes faoliyat turidan shug'ullanishdan qat'iy nazar elektr energiyadan foydalanish uchun alohida elektr energiya ishlab chiqaruvchi stansiya barpo etish shart emas! Shunchaki tarmoqqa ulanish kifoya.

Yuqorida keltirilgan misollarda bir qancha savollar paydo bo'lgan va ushbu savollarga javob sifatida ham, autsorsing matritsasi tshunchasi to'g'risida ham ma'lumotlar keltiriladi. Autsorsing turli xil maqsadlarga erishish yoki mutlaqo

noto'g'ri bo'lishi va asossiz xarajatlarga olib kelishi ham mumkin! Outsorsing matritsasining vazifasi sizni vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri yechimni topishingizga yordam beradi.

Outsorsing matritsasi bu oddiy va tshunarli shaklda biznes tizim tarkibidan profil bo'lmagan aktivlar va ishlar bo'yicha prinsipial qarorlar taklif qiladigan jadvaldir.[2]

Outsorsing matritsasi to'qqizta katakchadan iborat bo'lib, koordinatalar sistemasiga joylashtirilgan. X o'qi tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra kuchsiz, o'rtacha va kuchli nuqtalarga bo'lingan. Y o'qi bo'yicha esa strategik ahamiyati bo'yicha past, o'rtacha va yuqori nuqtalarga bo'lingan.

Koordinatalar sistemasida joylashgan katakchalar nuqta sifatida K1, K2, K3, K4, K5, K6, K7, K8, va K9 deb belgilanadi. Har bir katakchaning o'z vazifasi bor va ular vazifasiga qarab nomalanadi. Katakchalarning hususiy holiga ko'ra va koordinatalar sistemasida katakchalarning nuqtsa sifatidagi belgilanishlarning o'zaro mosligi quyida keltirilgan.


K1 – Voz kechish va outsorsinga o'tish, K2 - Voz kechish va outsorsinga o'tish, K3 – Ajralib chiqish va outsorsing, K4 – Outsorsing alyans, K5 - Rivojlantirish va himoya, K6 – Rivojlanish va bozorga chiqish, K7 – Yaratish va rivojlantirish, K8 - Rivojlantirish va saqlash, K9 – Saqlash va himoya.

Outsorsing matritsasi hodimlarni tanlash, biznesni yo'lga qo'yish, turli faoliyat turlari bo'yicha qaysi paytda, qanday vaziyatda outsorsningdan foydalanish kerak ekanligini namoyon etadi. Albatda ushbu matritsa asosiy model sifatida ishlatilib, amalga oshiriladigan faoliyat turi bo'yicha ma'lum mutaxassislar bilan birgalikda o'z faoliyat turiga ko'ra matritsaga joylashtiriladi. Quyida Outsorsing matritsasiga Avtomobil ishlab chiqarish jarayoni tadbiri etilgan (1–chizma)

Ushbu outsorsing matritsasining maqsadi avtomobil ishlab chiqarish jarayonida qanday paytda, qaysi holatlarda outsorsingdan foydalanishni yaqqol

namoyon etadi. Birinchi bo'lib strategik ahamiyatiga ko'ra kuchsiz bo'lgan nuqtadan boshlaymiz.

1– chizma



Demak K1 nuqtasi Voz kechish va outsorsinga o'tish katakchasi hisoblanib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchsiz, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra past bo'lgan holatda, avtomobil ishlab chiqarishda chiqindilarni utilizatsiya qilish jarayonini olish mumkin. Bizga ma'lumki ayrim butlovchi qismlar, kimyoviy vositalar har hil taralarda, (bir martalik) olib kelinadi, qog'oz kardon orqali qadoqlangan bo'ladi. Ushbu qoldiq jismlarni saqlash ularni korxona hudida uzoq vaqt saqlash korxona uchun foydali emas! Shuning uchun utilizatsiya xizmatini korxona o'z zimmasidan chiqarib, outsorsingdan foydalanish samarali hisoblanadi. Utilizatsiya xizmatini ko'rsatish avtomobil ishlab chiqarishda korxona uchun muhimlik darajasi baland emas shu bilan birgalikda tashqi bozorda ushbu xizmat turi raqobatbardoshlik pozitsiyasi ham yuqori darajada rivojlangan emas.

K2 - nuqtasi ham Voz kechish va outsorsinga o'tish katakchasi hisoblanib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchsiz, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra o'rtacha bo'lgan holatda, avtomobil ishlab chiqarishda kerak bo'lgan rezina, oyna mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyatini olish mumkin.

Hozirgi kunda avtomobil sanoatida ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan korxonalar mavjud bo'lib, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona sifatida yondashadigan bo'lsak, rezina mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayyor mahsulotlari sifat darajasidek mahsulot ishlab chiqarish uchun ko'p vaqt va mablag' talab etiladi, ushbu holatda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona uchun, 100 % outsorsingdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu faoliyat turi esa tashqi bozorda raqobatbardoshlik pozitsiyasi o'rta darajada hisoblanadi.

K3- nuqtasi Ajralib chiqish va outsorsing katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchsiz, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra yuqori bo'lgan holatda, avtomobil ishlab chiqarishda muhim hisoblangan, avtomobil kuzovini ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan metall mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyatini olish mumkin. Strategik ahamiyatga ko'ra kuchsiz baholanganligi sababi, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning kelajakdagi rivojlanishi uchun ahamiyati yuqori darajada emas, Kuzov uchun kerak bo'lgan maxsus metall ishlab chiqarish qiyin jarayon bo'lib, ushbu sanoatni to'liq o'rganib chiqish, kerakli natijaga erishish uchun ko'p vaqt va moliyaviy mablag'larini talab etadi. Qolaversa kuzov uchun yoroqli metall mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo'lib, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona sifatida biz ushbu korxona bilan hamkorlikda faoliyat yuritishimiz maqul hisoblanadi.

K4 - nuqtasi Outsorsing alyans katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra o'rtacha, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra past bo'lgan holatda, avtomobil korxonasining dillerlik markazlarini tashkil etishni joylashtirdik. Dillerlik markazlarini ochish uchun rejalashtirilgan hududdan kelib chiqqan holatda, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning avtomobillariga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda, dillerlik markazini korxona o'zi tashkil etishi kerakmi yoki outsorsingdan foydalangan ma'qulmi degan savolga javob beramiz. Bizga ma'lumki har qanday biznes faoliyat yurgizilganda marketing tahlili olib boriladi. Agarda ushbu hududda ma'lum avtomobil kompaniyasi

tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillarga talab yuqori bo'lsa va kelajakda talabning oshishi prognoz qilingan bo'lsa avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning o'zi dillerlik markazini ochishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Agarda yuqoridagi holatlarning aksi bo'lsa, multi brend dillerlik markazlarning xizmatlaridan foydalanish xarajatlarni ortib ketmasligini ta'minlaydi va yuqori iqtisodiy ko'rsatkichga olib keladi.

K5 - nuqtasi Rivojlantirish va himoya katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra o'rtacha, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra ham o'rtacha bo'lgan holatda, avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning realizatsiya qilingan avtomobillarning qaysi kontinentlarda ekspluatatsiya qilinishiga ko'ra detallarni tanlash jaryonini o'z ichiga oladi.

K6 – nuqtasi Rivojlanish va bozorga chiqish deb nomlangan katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra o'rtacha, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra esa yuqori bo'lgan holatga diversifikatsiya ya'ni bizning holatda avtomobil turlarini rivojlantirish faoliyatini joylashtirdik. Shunday korxonalar borki, ushbu korxonalar avtomobil turlarini ko'paytirishga qiziqish baland emas. Misol uchun : Sport avtomobillariga ixtisoslashgan avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalar(Ferrari,Lamborghini), yo'l tanlamas avtomobil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan avtomobil korxonalari(Hummer,Jeep). Avtomobillarni diversifikatsiya qilish tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra yuqori bo'lganlik sabibi, ko'plab avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonalarning turli rusumdagi avtomobillarning soni juda ham ko'p va talab ham yuqori.

K7 - nuqtasi Yaratish va rivojlantirish katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchli, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra esa past bo'lgan holatdir. Ushbu katakchaga Avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonaning tashkil etilishini joylashtirdik. Strategik jihatdan yuqoriligining sababi, har bir boshlangan faoliyatda uning boshlang'ich qadamlari, kelajakdagi korxonaning istiqboliga katta ta'sir ko'rsatadi, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra pastligi esa, ko'p holatlarda yangi korxonaning bozorga kirib

kelishi va o'z o'rniga ega bo'lish uchun vaqt talab etiladi va bu bosqichda raqobatbardoshlik past ko'rsatkichda bo'ladi.

K8 – nuqtasi Rivojlanish va saqlash katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchli, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra o'rtacha bo'lgan holatdir. Korxona kelajagi uchun muhim hisoblangan istiqbolli dasturlar, loyihalar, kadrlar (malaka darajasi unchalik yuqori bo'lmagan kadrlar, lekin kelajakda a'lo darajadagi natijalar kutilayotgan hodimlar) misol bo'la oladi.

K9 - nuqtasi Saqlash va himoya katakchasi bo'lib, strategik ahamiyatiga ko'ra kuchli, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik pozitsiyasiga ko'ra ham yuqori bo'lgan holatdir. Bu katakchaga avtomobil yig'ish jaroyini joylashtirdik. Avtomobil yig'ish jarayoni yuqori darajadagi javobgarlikni ma'suliyatni talab etadi, qachonki avtomobil a'lo darajada ishlab chiqarilsa uning parametrlari bozor talabiga ko'ra mos kelsa avtomobil realizatsiya ko'rsatkichi yuqori darajaga ega boladi va albatta raqobatbardoshlik pozitsiyasi ham baland bo'ladi. Ushbu jarayonda eng malakali kadrlar jalb etilishi zamonaviy texnika va texnologiyalar ekspluatatsiya qilinishi korxona tayyor maxsulot sifatini belgilab beradi.

Yuqorida ishlab chiqilgan jadvaldan xulosa qilib aytish mumkinki yuqorida sanab o'tilgan katakchalarni joylashgan o'rniga e'tibor qaratsak, strategik ahamiyati kuchli bo'lgan jarayonlarda outsorsinga murojaat etilmagan balki korxona ushbu ishlarga o'zi kirishgan, strategik ahamiyati kuchsiz bo'lgan jarayonlarda esa to'liq outsorsingdan foydalanish ko'zda tutilgan, strategik ahamiyatning yuqori yoki pastligiga ko'ra outsorsingdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Кони́к](#) Н.В, [С. Ры́тик](#), [Ефимова](#) С, Пешкова Т. [Аутсорсинг](#) 24.07.2008г
2. <http://google.com/m.ru.wikipedia.org>
3. markgroup.ru/articles/article14